

## FUQAROLIK JAMIYATI G'OYALARINING MILLIY DAVLATCHILIGIMIZDAGI O'RNI

*Kurbanbayeva Munavvara Kozibayevna, UrDU  
o'qituvchisi, QDU "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq  
ta'limi" kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi*

## THE PLACE OF CIVIL SOCIETY IDEAS IN OUR NATION-STATEMENT

*Kurbanbaeva Munavvara Kozibaevna, teacher of UrSU,  
independent researcher of the department "National idea,  
foundations of spirituality and legal education" of QSU*

## МЕСТО ИДЕЙ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА В НАЦИОНАЛЬНОЙ ГОСУДАРСТВЕННОСТИ

*Курбанбаева Мунаввара Козибаевна, преподаватель  
УрГУ, независимый научный исследователь кафедры  
"Национальная идея, основы духовности и правового  
воспитания" КГУ*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek milliy davlatchiligida fuqarolik jamiyati g'oyalarining o'rni va amalda tatbiq etilishi misollar orqali ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** jamiyat, fuqarolik jamiyati, davlatchilik, fuqarolik jamiyati institutlari, adolatli rahbar, odil hukmdor g'oyasi.

**Abstract:** In this article, the role of the ideas of civil society in Uzbek national statehood and its practical implementation are revealed through examples.

**Key words:** society, civil society, statehood, institutions of civil society, the idea of a just leader, a just ruler.

**Аннотация:** В данной статье на примерах раскрывается роль и применение идей гражданского общества в узбекской национальной государственности.

**Ключевые слова:** общество, гражданское общество, государственность, институты гражданского общества, идея справедливого лидера, справедливый правитель.

**KIRISH.** Insoniyat paydo bo'lib, ongli hayot tarzini boshlashi bilanoq, jamoalarga uyushib yashaganini biz tarixiy davrlarni o'rganish orqali juda yaxshi bilamiz. Odamning tafakkur qilishga qodir oliy mavjudot sifatidagi asosiy belgilaridan biri – uning dastlab guruh, oila, urug', qabila, ya'ni jamoat tashkil qila olganidir. Ya'ni, odam nafaqat biologik tur, u olamda yagona ijtimoiy tur ham hisoblanadi. Buni ODAMning INSONLASHUVI, deb atasak ham yanglishmaymiz. Negaki, jamiyatda yashash, o'z-o'zidan, ijtimoiy munosabatlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Bular – ijtimoiy-

iqtisodiy, ijtimoiy-ma'naviy, ijtimoiy-axloqiy, ijtimoiy-huquqiy va h.k. munosabatlardir. Aynan mazkur munosabatlarning paydo bo'lishi hamda individuumlarning o'zaro ushbu munosabatlarga kirishuvi odamlar guruhini jonivorlar yoki yovvoyi jonzotlar to' dasidan keskin farqlanuvchi JAMOAGA aylantirdi.

Odamzodning jamoalarga birlashuvi, jamiyat taraqqiyotining keyingi rivoji uchun asos, insoniyat taraqqiyoti uchun poydevor bo'lib xizmat qildi.

Jamiyat ming yilliklar va asrlar mobaynida, uzluksiz taraqqiyot jarayonini boshidan kechirib



e-mail:

[tamaddunnuri1@gmail.com](mailto:tamaddunnuri1@gmail.com)

<https://orcid.org/0009-0002-6202-2064>

kelmoqda. Shuning natijasida, insoniyat tarixining eng katta yutug'i bo'lgan davlatchilik yuzaga keldi. Chunki, davlat xalqning umumiy manfaatlarini ifoda qilish va ro'yobga chiqarish uchun zarur bo'lgan siyosiy institutdir. Jamiyat, o'zi davlatni yaratarkan, yana o'zi, davlatning siyosiy va ijtimoiy vazifalarini adolat bilan amalga oshirishini nazorat qilishi ham lozim bo'ladi. Buning uchun, albatta, hokimiyatlar bo'linishi mexanizmi ishga tushishi shart. Davlat hokimiyatini nazorat qilib va tiyib turuvchi institutlar – fuqarolik jamiyati institutlaridir. Bir so'z bilan aytganda, davlat hokimiyati va fuqarolik jamiyati institutlari bir-birini taqozo qiladi. Bu holat, jamiyat o'z manfaatlarini qondirishi uchun davlatning mavjud bo'lishi; davlat o'z hokimiyatini o'rnatishi, faoliyat olib borishi uchun esa, o'z navbatida, jamiyatning mavjud bo'lishi shartligi bilan ifodalanadi. Ya'ni, bu uzviy qaytariluvchi jarayon bo'lib, uning harakat yo'nalishini aylana shaklida tasavvur qilsak bo'ladi – boshlang'ich va oxirgi nuqtani topish imkonsizdir.

Jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlar demokratik qadriyatlarga mos va o'zaro uyg'unlik kasb etgan sharoitda kuchli fuqarolik jamiyati shakllanadi.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.**

Fuqarolik jamiyati haqida antik davrdan to shu kungacha bo'lgan olimlar, siyosatchilar, tadqiqotchilar o'z fikrlarini bildirib kelmoqdalar. Qadimgi davr alloma-mutafakkirlari aksariyatining asarlarida jamiyat va davlatning ideal namunasi sifatida davlat va fuqarolik jamiyatini bir xil sifatlarga ega bo'lgan kategoriyalar, bir-biridan ayro bo'lmagan institutlar tarzida ifodalangan. Masalan, Aristotel jamiyatni davlatdan alohida tasavvur etmagan. Davlatning ham, fuqarolik jamiyatining ham asosini inson, ya'ni faol fuqaro tashkil qiladi. Shu nuqtayi nazardan u, davlatni fuqarolarning umumiy jamoasi, deb ta'riflagan. Aristotelning fikricha, "Davlat fuqarolarning o'z ehtiyojlarini yetarli darajada qondirish qobiliyatiga ega bo'lib yashashidir"[1].

O'zining "Fuqarolik boshqaruvi haqidagi ikkinchi risola" deb nomlangan asarida J.Lokk (1632–1704 y.) har qanday odam uchun tabiiy (ya'ni sodda, ibtidoiy – muallif izohi) holatni inkor etgan holda fuqarolik jamiyati talablari darajasiga yetish uchun yagona yo'l boshqalar bilan kelishgan holda

ijtimoiy birlikka qo'shilish yoki birlashishdan iborat ekanligini ta'kidlaydi[2].

**MUHOKAMA.** Fuqarolik jamiyati o'zi nima? Ushbu savolga ko'plagan qarashlar mavjud. "Fuqarolik jamiyati – konstitutsiyaviy huquq nazariyasida huquq va demokratiyaga asoslangan ijtimoiy hayotning zarur oqilona usuli: insonga uning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti shakllarini erkin tanlashni kafolatlanadigan, qonun ustuvorligi va inson huquqlari hamda erkinliklari qaror topadigan, ko'ppartiyaviylik, siyosiy institutlar, mafkura va fikrlarning xilma-xilligi ta'minlanadigan hamda o'zini o'zi boshqarish organlarining mavqei baland bo'lgan ijtimoiy tuzum. ...Fuqarolik jamiyati – huquq nazariyasida demokratik jamiyat doirasida iqtisodiyot, siyosat, madaniyat sohalaridagi munosabatlar majmui bo'lib, huquqning oliy darajada rivojlanganligini taqozo etadi"[3], deyiladi "Falsafa" ensiklopedik lug'atida.

"Fuqarolik jamiyati – milliy demokratik taraqqiyot yo'lidagi ezgu ideal. Falsafa faniga "ideal" tushunchasini I.Kant olib kirgan. Uning fikriga ko'ra, ideal pirovard maqsad bo'la oladigan voqelikka taalluqli. Shuning uchun u maqsadli faoliyatdan tashqarida shakllanishi mumkin emas"[4].

Mark Tulliy Sitseron jamiyatda fuqarolarning huquqiy jihatdan tengligini isbotlashni maqsad qilgan: "... Qonun fuqarolik jamiyatini bog'lovchi bo'g'ini, huquq esa, qonun bilan o'rnatilib, barcha uchun bir xil bo'ladi"[5]. Demokratik jamiyat haqidagi ilmiy qarashlar va ta'limotga beqiyos hissa qo'shgan mutafakkir Jan Jak Russoning ilmiy farazicha, nafaqat hukumat va fuqarolar o'rtasida, shuningdek, millatning barcha a'zolari o'rtasida ijtimoiy shartnoma tuzilishi lozim. Ushbu ijtimoiy shartnomaga muvofiq xalqning suverenlik huquqi asoslanadi: bu shartnomani tuzuvchilar hamyurtlar-vatanparvarlar hamjamiyatidir, hamyurtlar irodalari "barchaning irodasi" bo'lmay, haqiqiy hamyurtlar umumiy manfaatlarini ifodalaydigan umumiy irodadir. Bu umumiy irodani Russo "har vaqt doimiy, o'zgarmas va shaffof"[6] deb ta'riflaydi. O'zida bo'linmas-ajralmas xalq suverenitetini ifodalagan bu umumiy iroda tufayli, "xalqning qo'lidan hukumat xalq irodasiga muvofiq bajaradigan ijroiya hokimiyatni topshiriq sifatida oladi va bu irodani buzishga haqqi yo'q"[7].

Shuningdek, Fuqarolik jamiyati haqida fransuz olimi Sh.L.De Monteske (1689–1755 y), nemis faylasufi Emmanuil Kant (1724–1804 y), nemis mutafakkiri Georg Vilgelm Fridrix Gegel (1770-1831y), ingliz faylasufi Adam Fergyson (1723-1816 y) kabi olimlar ham salmoqli asarlar yozib, insoniyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shganlar.

**NATIJALAR.** Yuqorida nomlari sanab o‘tilgan olimlar asarlarida o‘ziga xos, bir-biridan farqli g‘oyalar bayon etilishi bilan birga, barchasi ta’limotining umumiy jihati shundaki, ular fuqarolik jamiyatining asosi inson va insonlar birligi bo‘lgan jamiyat, odamlarning birlashuvi bashariyat najotkoridir, odamlar o‘zaro ijtimoiy guruhlar, jamiyat va davlat atrofida birlashgandagina, insoniyat nomini olishga haqli, degan g‘oya yotadi. Ularning tasavvuridagi bu jamiyat esa – fuqarolik jamiyatidir.

Dunyo mutafakkirlari bilan bir qatorda O‘rta osiyo, xususan o‘zbek olimlari ham insoniyatning asriy orzusi bo‘lgan fuqarolik jamiyati va uni takomillashtirish haqida o‘z ilmiy qarashlarini bayon qilganlar. Yurtimizda adolatli jamiyat haqidagi dastlabki qarashlar bundan to‘rt ming yillar oldin xalq og‘zaki ijodida, keyinchalik afsonaviy qahramonlar, xalq xaloskorlari, xudolar to‘g‘risidagi yozma manbalar, ertaklar va dostonlarda, diniy mifologiyada o‘z aksini topgan. Ularda hamisha haqiqat va yolg‘on, ezgulik va yovuzlik, halollik va tubanlik o‘rtasida kechgan ayovsiz kurashlar, pirovard natijada esa, haqiqat va adolat, ezgulik va rostgo‘ylikning g‘olib kelishini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, xalqimizning tarixiy va adabiy dahosi yaratgan ushbu ijod namunalarida hamisha adolatli rahbar, odil hukmdor g‘oyasi bosh konsepsiya bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur dastlabki tasavvurlar, qarashlar vaqt o‘tishi bilan yaxlit bir ta’limot shaklida eng qadimiy yozma manba bo‘lgan “Avesto”da o‘z takomilini topganini ko‘rishimiz mumkin. “Avesto”da yozilishicha, o‘sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy tizim bir-biriga bog‘liq iyerarxik pog‘ona-davlat – shoh (“kavi”), jamoa boshlig‘i (“vis”), harbiy boshliq (“dax‘yu sastar”), oliy sudya (“zaratushtroema”), oqsoqollar kengashi (“varzanapati”)dan iborat bo‘lgan[8]. Tushunish mumkinki, jamoa ahlining asosiy qismi davlat boshqaruvida ishtirok etgan. Sodda va birlamchi ko‘rinishdagi, oddiy shakldagi fuqarolik jamiyati

belgilari ushbu ta’limot bitiklarida yaqqol ko‘rinib turibdi. Bular: urug‘ va qabilaga birlashgan jamoa mavjudligi, jamoaning umumiy-ijtimoiy mehnat bilan shug‘ullanishi, erkin jamoa a‘zolarining asosiy mulki bo‘lgan chorva va yerlardan teng foydalanishi, erkaklar bilan xotin-qizlar teng huquqqa ega bo‘lganligi, qabilaning umumiy manfaati bilan bog‘liq bo‘lgan turli masalalar oqsoqollar Kengashida muhokama etilgani haqidagi yozilgan ma’lumotlar, yozuvlardir. Aytish mumkinki, “Avesto” “demokratiya” va “fuqarolik jamiyati” tushunchalari paydo bo‘lishidan bir necha ming yillar oldin yuzaga kelgan. Xalqimizning yuksak ma’naviy, axloqiy, ruhiy va ijtimoiy-iqtisodiy qudratidan darak berib turgan ushbu nodir ma’naviy merosimiz bilan haqli ravishda faxrlansak arziydi.

IX-XII asrlarda O‘rta Osiyo mutafakkirlarining qarashlarida davlatni boshqarish va adolatli jamiyat qurishga doir g‘oyalar o‘z aksini topgan. “O‘rta Osiyo xalqlari ilg‘or mutafakkirlarining siyosiy-falsafiy qarashlarida odil hukmdor g‘oyasi markaziy o‘rinni egallaydi. Ular davlat tepasida turgan hukmdor adolatli, xulq-atvori pok, fuqarolarga rahm-shafqatli, g‘amxo‘r bo‘lsa, davlat qudratli, jamiyat farovon bo‘ladi deb tushunadilar. Shundan kelib chiqqan holda ular insonni ma’naviy kamolotga erishishga chaqiradilar va shu orqali adolatsizlik, xulqiy buzuvchiliklarni bartaraf qilish mumkin deb hisoblaydilar”[9.10].

Islom ilohiyotchisi, faylasuf Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al-G‘azzoliy (1058-1111) o‘zining qator asarlarida bayon etgan ta’limotida, Yusuf Xos Hojib (taxm. 1020/21 y. tug‘ilgan) 1069 yilda yozilgan “Qutadg‘u bilig‘” (Saodatga boshlovchi ilm) dostonida, Abu Nasr Forobiy (873-950) “Fozil odamlar shahri”, “Shaharni o‘rganish haqida”, “Urush va tinch turmush haqida”, “Baxt-saodatga erishish haqida risola”, “Davlat arboblari haqida hikmatlar” nomli asarlarida, Saljuqiylar davlat arbobi Nizomulmulk (1017– 1092) o‘zining “Siyosatnoma” asarida, Abu Rayhon Beruniy (973-1048) o‘zining qator asarlarida, Ibn Sino (980-1037) ko‘plagan asarlarida adolatli jamiyat va adolatli hukmdor haqida o‘z qarashlarini bayon qilganlar. Ular xalqning ahvolini yaxshilash, davlat va jamiyatni boshqarish, jinoyat va jazo, umuman, barcha ijtimoiy-siyosiy masalalarning hal etilishini asosan ideal shoh bilan bog‘laydilar. Ayni paytda shoh bilan ra’iyat (xalq)

o'rtasidagi aloqalarning ham qanday tartibda bo'lishi haqida o'z qarashlarini bayon qildilar. Keyingi asrlarda ham yuqorida tilga olingan Uyg'onish davri mutafakkirlarining ilmiy ta'limotlari ta'sirida o'lkamiz hududida tinchlik, aytarli darajada xalq turmushining farovonligi, davlat boshqaruvida qonun ustuvorligi, haqiqat, rostgo'ylik, halollikka katta e'tibor berilgan davrlar ham hukm surdi, mazkur qadriyatlar ustiga yirik va qudratli imperiya barpo etildi. Bu Sohibqiron Amir Temur tomonidan Movarounnahrda barpo etilgan qudratli saltanatdir.

“Amir Temur davlatining rivojiga ta'sir etuvchi bir qator omillar mavjud ediki, bu omillardan biri Amir Temur davri mafkurasining asosini Bahovuddin Naqshband tariqati g'oyalari tashkil etgan bo'lsa, ikkinchisi, madaniyat va ma'naviyat taraqqiyotiga bevosita Hazrat sohibqironning o'zi rahnamolik qilganligidir. Amir Temur davlati siyosatini shakllantirish va qaror toptirishda Naqshbandiya tariqati asosida yuzaga kelgan mafkuraning amaliy ahamiyati beqiyosdir. Chunonchi, davlat siyosatini belgilashda va uni amalda hayotga tatbiq etishda naqshbandiya tariqati g'oyalarini ifodalovchi “Rosti-rusti” qoidasi asos qilib olindi. “Rosti-rusti” (haqgo'y bo'lsang – najot toparsan) haqiqat – tartib, haqiqat – adolat ma'nosida bo'lib, barcha ishda, odamlar orasidagi munosabatlarda, umuman, hayotda haqiqat qaror topishi, bu esa adolatning, ya'ni odil jamiyatning tasdiq etilishini ta'minlashi lozim, degan ma'noni bildiradi. Sohibqiron bu g'oyani yanada takomillashtirib va unga aniqlik kiritib “Adolat kuchda emas, kuch – adolatdadir” degan mashhur hamda o'sha davrgacha davlatlar tajribasida ommaviy qo'llanilmagan qoidani kashf etdi. U o'zining “Temur tuzuklari” asarini ham ana shu qoida asosida yaratdi va umrining oxirigacha butun faoliyati davomida mazkur qoidaga amal qildi. Davlat siyosatining adolat mezoni asosida yuritilishi boshqarishning barcha sohalarini ana shu mezoniga moslashtirishni taqozo etar edi. Amir Temur davlatida hozirgi kundagi parlamentni eslatadigan katta va kichik kengashlar shu talab asosida ta'sis etilgan edi”[9. 19].

**XULOSA.** Bularga qo'shimcha qilib aytishimiz mumkinki, amir Temur davlati O'рта

Osiyo, xususan Uyg'onish davri mutafakkirlari ta'limotlarining bevosita davlatchilikda joriy etilishi, deb qabul qilsak bo'ladi. Fuqarolik jamiyati haqidagi o'tmish olimlarning ilmiy qarashlari Amir Temur davlatida qisman tatbiq etilgani alohida diqqatga sazovordir. Keyinchalik, Amir Temur asos solgan buyuk markazlashgan davlatni 40 yil davomida uning nabirasi Mirzo Ulug'bek muvaffaqiyat bilan boshqardi, u nafaqat ulkan davlat arbobi, shu bilan birga buyuk mutafakkir alloma sifatida ham dunyoga dong taratdi. Mirzo Ulug'bek mislsiz ulkan saltanatni boshqarar ekan, davr taloto'plari, qiyinchiliklariga qaramasdan bobosi Amir Temurning “Temur tuzuklari”ga tayanib uzoq yillar davomida mamlakat tinchligi, xalq osoyishtaligi va baxt-sodatini ko'zlab adolat bilan hukm yurgizdi. Uning hukmronlik yillari tarixda tinchlik va osoyishtalik qaror topgan davr, boshqaruvi esa adolatli boshqaruv sifatida muhrlanib qoldi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, fuqarolik jamiyati g'oyalari milliy davlatchiligimizda nafaqat nazariya sifatida, balki amalda ham sodir bo'lgan voqelik tarzida mavjuddir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Аристотель. Политика. Соч. В 4-х томах. Т.4. – М.: Мысль, 1984. – С. 379.
2. Гоббс Т. Избранные произведения. В 2-х томах. Т.2. М.1956. 137-бет.
3. Фалсафа, энциклопедик луғат. Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2010.
4. Идеал. Новейший философский словарь. – Минск, 1999, 253-бет.
5. Цицерон. Диалоги. – М., 1966. – С.24.
6. Руссо Ж.Ж. Об общественном договоре. Трактаты. – М., 1969. –Б. 160-162, 171, 193.
7. Қирғизбоев М. Ўзбекистонда фуқаролик жамияти институтларининг шаклланиши ва ривожланиши. Сиёсий фанлар доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. 2007 й. – Б. 52.
8. Махмудов Т. Авесто ҳақида. –Т.: Шарқ, 2000. 23-б.
9. Бўриева М. Ўзбекистонда демократик жамият қуриш назарияси ва амалиёти. Ўқув қўлланма (I қисм). Тошкент, 2006. Б.10.